



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



Inson kapitali iqtisodiyoti
Economics of human capital
Экономика человеческого
капитала



MINTAQADA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Samiyeva Gulnoza Toxirovna, Safarov Farrux Baxtiyor o'g'li

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНЕ

Самиева Гульноза Тохировна, Сафаров Фаррух Бахтиёр угли

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENSURING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE REGION

Samiyeva Gulnoza Tokhirovna, Safarov Farrukh Bakhtiyor ogli

Received: February 8, 2026 Revised: February 14, 2026 Accepted: February 18, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada aholi bandligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Xorijiy, MDH hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ilmiy qarashlari asosida mehnat bozori, bandlik va ishsizlik muammolarining iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy bandlik siyosati, mehnat bozori segmentatsiyasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali ish o'rinlari yaratishning nazariy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqot natijalari mintaqada aholi bandligini ta'minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, mehnat bozori, ishsizlik, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, kichik biznes, tadbirkorlik.

Аннотация. В статье исследованы научно-теоретические основы обеспечения занятости населения в регионе. На основе научных подходов зарубежных, стран СНГ и узбекских ученых проанализированы проблемы рынка труда, занятости и безработицы, а также их влияние на экономический рост, территориальное развитие и социальную стабильность. Особое внимание уделено вопросам региональной политики занятости, сегментации рынка труда, а также созданию рабочих мест через развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. Полученные выводы и предложения направлены на повышение эффективности обеспечения занятости населения в регионах.

Ключевые слова: занятость населения, рынок труда, безработица, региональное развитие, социально-экономическая политика, малый бизнес, предпринимательство.

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations of ensuring employment in a region. Based on the scholarly views of foreign, CIS, and Uzbek economists, the study analyzes labor market issues, employment and unemployment, and their impact on economic growth, regional development, and social stability. Particular attention is paid to regional employment policy, labor market segmentation, and job creation through the development of small business and private entrepreneurship. The research findings contribute to the formulation of theoretical conclusions and practical recommendations aimed at improving employment efficiency at the regional level.

Keywords: employment, labor market, unemployment, regional development, socio-economic policy, small business, entrepreneurship.



■ KIRISH

Dunyo bo'yicha globallashuv, iqtisodiy integratsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida aholi bandligini ta'minlash masalasi har bir davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholi bandligi darajasi mamlakat iqtisodiyotining samaradorligi, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar turmush darajasi va daromadlarining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Birgina Lotin Amerikasi va Karib mintaqasida 2024 yilda ishsizlik darajasi 6-7 % atrofida bo'ldi, ammo ko'plab ishchi joylar norasmiy sektorda qolmoqda va ish sifati pastligi saqlanmoqda [1].

Xalqaro tajribalardan ko'rinadiki, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishgan davlatlar avvalo mehnat bozorini tartibga solish, aholi bandligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratish va doimiy ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda (jumladan, OECD va boshqa yuqori daromadli davlatlar) aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha asosiy siyosat va amaliy yo'nalishlar – institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy choralar bilan raqamli asosda va ilmiy tarzda taqdim etiladi. 2025 yil holatiga ko'ra, OECD hududidagi ishsizlik darajasi taxminan 4,9 %, bu esa yuqori darajadagi bandlikni ifodalaydi. Ish bilan bandlik darajasi esa 72,1 % ga etgan, bu esa rivojlangan davlatlarda mehnat bozorining nisbatan barqarorligidan dalolat beradi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomalarda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan. Davlat rahbari "aholi bandligini oshirish orqali fuqarolarning real daromadlarini ko'paytirish va ularning turmush darajasini yaxshilash" zarurligini ta'kidlab, bu borada hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish, kasb-hunar o'rgatish tizimini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish vazifalarini belgilab berdi hamda "kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish – kelgusi yil uchun dasturimizning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidir. Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi" [3], deb ta'kidladi.

2030-yilgacha mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qator muhim vazifalar ko'zda tutilgan. Jumladan, mehnat bozorini rivojlantirish, norasmiy bandlikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, hududlarda kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirish orqali barqaror bandlikni ta'minlash belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi esa aholi bandligini ta'minlashning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini chuqur ilmiy asosda o'rganishni talab etadi. Hududlarda, ayniqsa Qashqadaryo viloyati

misolida aholi bandligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganish mazkur hududning iqtisodiy va demografik xususiyatlari bilan izohlanadi. Viloyatda aholining yuqori tabiiy o'sishi, mehnat resurslari salohiyatining katta ekanligi, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining hududiy notekis rivojlanganligi bandlik masalasiga kompleks yondashuvni talab etadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli yondashuv, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, so'rovnoma usullaridan foydalanilgan.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada aholi bandligini ta'minlash, hududiy mehnat bozorining rivojlanishi, bandlikka ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, davlatning bandlik siyosati va bandlikni tartibga solish mexanizmlari masalalari bir qator xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlar qatorida J. M. Keynes, A. Sen, G. Becker, P. Krugman, R. Layard, D. Autor, O. Blanchard, T. Piketty, J. Stiglitz kabi olimlarning ilmiy ishlarida mehnat bozori, bandlik va ishsizlik muammolari, bandlikning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlarda aholi bandligini oshirishda inson kapitali, ta'lim sifati, innovatsiyalar, institutsional muhit va davlat siyosatining roli alohida ta'kidlangan [4,5,6,7].

MDH davlatlari olimlari orasida Atkinson A., Zubarevich N. V., Bobilev S. N., Solovyeva S. V., Polozov V. A., Lipina S. A., Agapova YE. V., Vaytszekker E., Zaxarov V. M., Vashalova T. V. kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida hududiy rivojlanish, mehnat bozori segmentatsiyasi, mintaqalararo bandlik tafovutlari va ijtimoiy siyosatning bandlikka ta'siri masalalari atroflicha o'rganilgan [8,9,10,11]. Ularning tadqiqotlarida mintaqaviy iqtisodiyot va bandlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham aholi bandligi va mehnat bozori muammolari keng yoritilgan. Jumladan, Q.Abduraxmonov, A.E.Ergashev, T.K.Iminov, A.V.Vahabov, T.Z.Teshaboyev, M.T.Butaboyev, Sh.Sh.Shohimardonov, B.Yu.Xudoyberdiyev va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida bandlikni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, hududiy bandlik siyosati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali ish o'rinlari yaratish masalalari chuqur tahlil qilingan [12,13,14,15].

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari aholi bandligini ta'minlashda iqtisodiy o'sish, investitsiya muhiti, infratuzilma rivoji, kasb-hunar ta'limi va demografik omillarning rolini ochib berishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, bandlikni oshirishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi hamda hududlar kesimida differensial yondashuvni qo'llash muhimligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda mintaqada aholi bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks va tizimli yondashuv asosida baholash, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda hududiy darajada



takomillashtirish bo'yicha masalalar etarli darajada chuqur tadqiq etilmagan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada aholi bandligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritilishida bir qancha iqtisodchi olimlar fikr-mulohazalari berilgan. Jumladan, J. M. Keynes, A. Sen, G. Becker, P. Krugman, R. Layard, D. Autor, O. Blanchard, T. Piketty hamda J. Stiglitz kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mehnat bozori, aholi bandligi va ishsizlik muammolari iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillari sifatida nazariy jihatdan asoslab berilgan [4,5,6,7].

Xususan, Keynsning makroiqtisodiy nazariyasida bandlik darajasi samarali talab hajmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, davlat tomonidan fiskal va pul-kredit siyosati orqali ish o'rinlarini yaratish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi (Keynes, *The General Theory of Employment, Interest and Money*, 1936). A. Senning "imkoniyatlar yondashuvi"ga ko'ra, bandlik nafaqat daromad manbai, balki inson kapitali rivoji, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi (Sen, *Development as Freedom*, 1999).

G. Bekker inson kapitali nazariyasi orqali mehnat bozorida ta'lim va kasbiy ko'nikmalarga investitsiyalar bandlik darajasini oshirish hamda ishsizlikni qisqartirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslaydi (Becker, *Human Capital*, 1964). P. Krugman va O. Blanshar tadqiqotlarida esa ishsizlikning siklik va tuzilmaviy shakllari makroiqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi, yuqori ishsizlik iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi ko'rsatib berilgan (Krugman, *End This Depression Now!* 2012; Blanchard, *Macroeconomics*, 2017).

Shuningdek, R. Leyard ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarini, jumladan farovonlik darajasi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sirini nazariy va empirik jihatdan asoslab bergan (Layard, *Happiness: Lessons from a New Science*, 2005). D. Autor mehnat bozorida texnologik o'zgarishlar va avtomatlashtirish jarayonlarining bandlik tuzilmasiga ta'sirini tahlil qilib, mehnat bozorini faol tartibga solish zarurligini ta'kidlaydi (Autor, *Work of the Past, Work of the Future*, 2019).

T. Piketti va J. Stiglitz ilmiy ishlarida esa ishsizlik va past bandlik daromadlar tengsizligini kuchaytirishi, bu esa iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqarorligiga xavf solishi nazariy jihatdan isbotlangan (Piketty, *Capital in the Twenty-First Century*, 2014; Stiglitz, *The Price of Inequality*, 2012). Demak, ushbu olimlar qarashlari mehnat bozori va aholi bandligini ta'minlash iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy nazariy poydevori ekanini ko'rsatadi.

MDH davlatlari olimlari orasida A. Atkinson, N. V. Zubarevich, S. N. Bobilev, S. V. Soloveva, V. A. Polozov, S. A. Lipina, Ye. V. Agapova, E. von Weizsäcker, V. M. Zakharov hamda T. V. Vas'halova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida hududiy rivojlanish, mehnat bozori segmentatsiyasi, mintaqalar bandlik tafovutlari va ijtimoiy siyosatning aholi

bandligiga ta'siri masalalari chuqur nazariy tahlil qilingan [8,9,10,11].

Jumladan, A. Atkinson o'z tadqiqotlarida hududlar o'rtasidagi daromad va bandlik tafovutlari ijtimoiy tengsizlikning asosiy manbalaridan biri ekanini ko'rsatib, faol ijtimoiy siyosat mehnat bozoridagi disbalanslarni yumshatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini nazariy jihatdan asoslaydi (Atkinson, *Inequality: What Can Be Done* 2015). N. V. Zubarevich ishlarida esa iqtisodiy faollik va bandlik darajasining hududlar kesimida keskin farqlanishi Rossiya va boshqa MDH mamlakatlarida mintaqalaro ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning asosiy sabablaridan biri sifatida qaraladi (Zubarevich, *Regional Development and Inequality in Russia*, 2010).

S. N. Bobilev va S. A. Lipina tadqiqotlarida barqaror hududiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida aholi bandligini ta'minlash iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti sifatida baholanadi, bunda davlatning hududiy siyosati mehnat bozoriga faol ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi (Bobilev, Lipina, *Sustainable Development of Regions*, 2016).

Shuningdek, S. V. Solovyova, Ye. V. Agapova va V. A. Polozov ishlarida mehnat bozorining segmentatsiyasi — ya'ni rasmiy va norasmiy sektorlar, yuqori va past malakali ish o'rinlari o'rtasidagi farqlar — bandlik sifati va aholi daromadlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslab berilgan (Soloveva, *Labor Market Segmentation*, 2014).

Ye. fon Vaytszekker va V. M. Zakharov tadqiqotlarida esa hududiy iqtisodiy siyosat, ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda olib borilganda, uzoq muddatli barqaror bandlikni ta'minlash imkoniyati oshishi ta'kidlanadi (Weizsäcker, *Factor Five*, 2009; Zakharov, *Regional Policy and Employment*, 2012). T. V. Vashalova ishlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va faol mehnat bozori siyosatining ishsizlik darajasini pasaytirishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan (Vas'halova, *Social Policy and Employment*, 2015).

Shu tariqa, MDH davlatlari olimlarining ilmiy qarashlari hududiy rivojlanish darajasi, mehnat bozori tuzilishi va ijtimoiy siyosat aholi bandligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini hamda mintaqalar bandlik tafovutlarini kamaytirish kompleks davlat siyosatini talab etishini nazariy jihatdan isbotlab beradi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari — Q. Abduraxmonov, A. E. Ergashev, T. K. Iminov, A. V. Vahabov, T. Z. Teshaboyev, M. T. Butaboyev, Sh. Sh. Shohimardonov, B. Yu. Xudoyberdiyev va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida aholi bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, hududiy bandlik siyosati hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali ish o'rinlari yaratish masalalari chuqur nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan [12,13,14,15].

Jumladan, Q. Abduraxmonov o'z ilmiy ishlarida mehnat bozorini tartibga solish, aholi bandligini oshirishda davlat siyosati va bozor mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini asoslab, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda bandlik siyosatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi (Abduraxmonov, *Mehnat iqtisodiyoti va bandlik*, 2018). A. E. Ergashev va T. K.



Iminov tadqiqotlarida esa demografik omillar, mehnat resurslari tarkibi hamda hududlar kesimida iqtisodiy faollik darajasining bandlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

A. V. Vahabov, B. Y. Xudoyberdiyev va M. T. Butaboyev ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratishning eng samarali manbalaridan biri sifatida qaraladi. Ular tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va institutsional muhitni yaxshilash orqali hududlarda barqaror bandlikni ta'minlash mumkinligini nazariy jihatdan isbotlaydilar (Vahabov, Kichik biznes va bandlik, 2019).

Shuningdek, T. Z. Teshaboyev va Sh. Sh. Shohimardonov tadqiqotlarida hududiy bandlik siyosati doirasida mahalliy mehnat bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari, qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi bandlik tafovutlari hamda ularni kamaytirish mexanizmlari atroflicha tahlil qilingan. Mualliflar faol mehnat bozori siyosati, kasbga qayta tayyorlash va hududiy investitsiya dasturlari aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. O'zbekiston olimlarining mazkur ilmiy qarashlari aholi bandligini ta'minlash iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ekanini, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ish o'rinlari yaratish bandlik siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozimligini nazariy jihatdan asoslab beradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat bozori va aholi bandligini ta'minlash masalalari iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish hamda ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. J. M. Keynes, A. Sen, G. Bekker, P. Krugman, R. Leyard, D. Autor, O. Blanshar, T. Piketti, J. Stiglits kabi xorijiy olimlarning nazariy yondashuvlarida bandlik darajasining pasayishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi, ishsizlik esa ijtimoiy tengsizlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar mehnat bozori segmentatsiyasini kuchaytirishi, bu esa mintaqalaro bandlik disbalanslarini keltirib chiqarishi isbotlangan. O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida esa aholi

bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, hududiy bandlik siyosati hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali ish o'rinlari yaratishning ustuvor ahamiyati atroflicha yoritilgan.

Umuman olganda, mazkur ilmiy qarashlar aholi bandligini ta'minlash faqat mehnat bozori doirasida emas, balki makroiqtisodiy siyosat, hududiy rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozimligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Yuqoridagi nazariy xulosalardan kelib chiqqan holda, mintaqada aholi bandligini ta'minlash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Hududiy bandlik siyosatini takomillashtirish. Har bir hududning iqtisodiy salohiyati, demografik tarkibi va mehnat resurslari xususiyatlarini hisobga olgan holda differensiallashgan bandlik dasturlarini ishlab chiqish lozim.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va institutsional muhitni yaxshilash orqali tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rag'batlantirish, bu esa yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi.

3. Faol mehnat bozori siyosatini rivojlantirish. Kasbga qayta tayyorlash, malaka oshirish va qayta o'qitish dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadga muvofiq.

4. Mehnat bozori segmentatsiyasini qisqartirish. Rasmiy va norasmiy bandlik o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, norasmiy sektorda band bo'lgan aholini rasmiy mehnat munosabatlariga jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

5. Ijtimoiy himoya va bandlik siyosatining uyg'unligini ta'minlash. Ijtimoiy nafaqalar, subsidiyalar va bandlik dasturlarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali aholining mehnat faolligini oshirishga erishish mumkin.

6. Mehnat bozori monitoringi va tahlil tizimini takomillashtirish.

Hududlar kesimida bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilish, raqamli platformalar asosida mehnat bozori ma'lumotlar bazasini rivojlantirish zarur.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Samiyeva Gulnoza Toxirovna Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD / Самиева Гульноза Тохировна доцент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, PhD. / Samiyeva Gulnoza Tokhirovna Associate Professor of the "Innovative Economics" Department at Qarshi State Technical University, PhD.
samiyevagulnoza@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3192-3887

2. Safarov Farrux Baxtiyor o'g'li Qarshi davlat texnika universiteti, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida magistranti / Сафаров Фаррух Бахтиёр угли магистрант кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Safarov Farrukh Bakhtiyor o'gli Master's student at the "Innovative Economics" Department of Qarshi State Technical University.
safarovf571@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5508-3204

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] <https://www.reuters.com/world/americas/unemployment-dips-latin-america-2024-inequality>



[2] https://www.oecd.org/en/publications/2025/07/oecd-employment-outlook-2025_5345f034

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr

[4,5,6,7] John Maynard Keynes. The General Theory of Employment, Interest, and Money. – London: Macmillan, 1936. – 403 p./ Amartya Sen. Employment, Technology and Development. – Oxford: Clarendon Press, 1975. – 193 p./ Gary S. Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1964. – 187 p./ Paul Krugman. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p. / Richard Layard, Stephen Nickell, Richard Jackman. Unemployment: Macroeconomic Performance and the Labour Market. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 640 p./ David Autor. The Work of the Future: Building Better Jobs in an Age of Intelligent Machines. – MIT Press, 2022. – 184 p./ Olivier Blanchard. The Economics of Post-Communist Transition. – Oxford: Clarendon Press, 1997. – 164 p./ Thomas Piketty. Capital in the Twenty-First Century. – Cambridge, MA: Belknap Press, 2014. – 696 p./ Joseph E. Stiglitz. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 288 p

[8,9,10,11] Аткинсон А. Неравенство: как с ним быть? / Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Дело» РАНХиГС, 2016. – 536 с. / Зубаревич Н. В. Регионы России: неравенство, кризис, модернизация. – М.: Московский Центр Карнеги, 2010. – 160 с. / Бобылев С. Н., Соловьева С. В. Экономика устойчивого развития: учебник. – М.: КноРус, 2021. – 312 с. /

Полозов В. А. Инновационная модель занятости в современной экономике. – Минск: Мисанта, 2014. – 230 с. / Липина С. А., Агапова Е. В. Зеленая экономика: Глобальные тренды и перспективы развития. – М.: ЛЕНАНД, 2015. – 320 с. / Вайцзеккер Э., Ловинс Э., Ловинс Х. Фактор четыре: Затрат – половина, отдача – двойная. – М.: Academia, 2000. – 400 с. / Захаров В. М. Устойчивое развитие: Экологические показатели. – М.: Институт устойчивого развития, 2011. – 180 с. / Вацалова Т. В. Устойчивое развитие: Учебное пособие. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 232 с.

[12,13,14,15] Абдурахманов Қ. Меҳнат муҳофазаси // Архив научных исследований. – 2020; Ergashev A.E. Aholi bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 210 b. Iminov T.K. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2008. – 264 b. / Vahabov A.V. va boshqalar. Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: Moliya, 2015. – 356 b. / Teshaboyev T.Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyalashuvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 240 b. / Butaboyev M.T. O'zbekistonda mehnat bozori shakllanishi va uning amal qilishi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 192 b. / Shohimardonov Sh.Sh. Hududiy mehnat bozorini boshqarishning innovatsion mexanizmlari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 180 b. / Xudoyberdiyev B.Yu. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – aholi bandligini ta'minlashning muhim omili. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016. – 215 b.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz